

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARIDA RADIFNING IFODA SHAKLLARI

Dilshod Zaripovich Rajabov

*filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
BuxDU o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası professori*

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tuzilishi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, radif va uning ko‘rinishlari, xalq qo‘shig‘idagi ifodalari tahlilga tortilgan. Xalq qo‘shig‘idagi radifning tutgan o‘rni va tasniflari asoslangan.

Kalit so‘zlar: Radif, qo‘shiq, qofiya, tajnis, hojib

O‘zbek folklorshunosligida xalq qo‘shiqlarida **radif**ning qo‘llanilishi hali maxsus o‘rganilmagan. Bu haqda xalq qo‘shiqlari tadqiqiga bag‘ishlangan ayrim manbalarda bildirib o‘tilgan yo‘l-yo‘lakay munosabatlar qatorida D.O‘rayeva va D.To‘rayevaning “O‘zbek xalq qo‘shiqlarida radif” nomli (2015) mo‘jazgina risolasi mavjud, xolos. Shu risola mualliflari ta’kidlab o‘tishganidek: “Sheriy asarlarda har bir kichik badiiy unsur ham matn qurilishi va badiiyat masalasi bilan uzviy bog‘lanadi. Jumladan, radif ham sheriyl asarlar kompozitsiyasi va badiiyatida muhim o‘rin tutib, rango-rang qirralari orqali e‘tiborni tortadi”. [O‘rayeva D., To‘rayeva L. 1:28]

Radif hamma qo‘shiqlarda ham uchrayvermaydi. O‘zbek xalq qo‘shiqlari radifning ishtirokiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: a) radifli qo‘shiqlar; b) radifsiz qo‘shiqlar. Ayni paytda, qofiyalar ham radifli qofiya yo radifsiz qofiya bo‘ladi.

E.Bertels: “She’rda etakchi belgilardan biri radifning bo‘lishidir. Chunki radif she’rga o‘zgacha oxang, nafislik, xushohanglik bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, aytilmoqchi bo‘lgan fikrni, muddaoni ta’kidlab ko‘rsatishga ham xizmat qiladi. Badiiy sanatkorlik qoidalariga ko‘ra radif tarozini to‘g‘ri keltirish uchun qo‘yilgan sun’iy bir tosh emas, balki uning vazifasi butun misralarning ma’nosidan tabiiy sizib chiqishi kerak”, – deydi. [Bertels E.Y. 2: 48]

D.O‘rayeva va L.To‘rayevalarning kuzatishicha, o‘zbek xalq qo‘shiqlaridagi radiflar, asosan, ikki xil xususiyatga ega. Birinchisi, ular butun qo‘shiq matni doirasida kelib, ma’noni kuchaytirishga, fikrni malum bir nuqtaga to‘plashga xizmat qiladi. Qo‘shiq manosi uchun xizmat qiladigan bunday radiflarni matndan tushirib qoldirib bo‘lmaydi. Chunki bunday holda qo‘shiq ma’nosiga putur yetadi, yani ifodalanayotgan mazmun va asosiy g‘oya o‘zgaradi yoki bemantiq bo‘lib qoladi. Shuning uchun bu tipdagi radiflar qo‘shiqning g‘oyaviy-badiiy qurilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi xil radiflar sifatida faqat qo‘shiq ohangdorligini oshirish uchungina qo‘llanadigan radiflar nazarda tutiladi.[O‘rayeva D., To‘rayeva L.1:10] Shakl uchun xizmat qiladigan bunday radiflarni qo‘shiq matnidan tushirib qoldirilsa-da, ifodalanayotgan mano-mazmunga hech qanday putur etmaydi. Buni quyidagi qo‘shiq matni asosida dalillash mumkin:

Toqi-toqingdan sani,
Mushtoqi toqingdan sani.
Kechani kunduz qilib,

O‘psam qovog‘ingdan sani. [Buxor elda gul sayli. 3:15]

Bu qo‘shiqlarda *toqingni // qovog‘ingni* so‘zlari o‘zaro qofiya bo‘lib, radif qoidasiga binoan undan so‘ng bir xilda takrorlanib kelayotgan “sani” so‘zi radifdir. Agar bunda “sani” so‘zi tushirib qoldirilsa-da, usiz ham bu qo‘shiqning ma‘nosi o‘zgarmaydi. Faqat qo‘shiqdagi ta‘kid ohangi yo‘qoladi, xolos.

Boshimdagi alvon ekan, gul yorim,
Va‘dalari yolg‘on ekan, gul yorim.
Man, hay sani odam bilib yursam,

Sani xudo urgan ekan, gul yorim. [Buxor elda gul sayli. 3:71]

Qo‘shiqdagi “*alvon ekan*” // “*yolg‘on ekan*” // “*urgan ekan*” qofiyadosh so‘zlaridan keyin kelgan va ayni paytda, uning ikkinchi turog‘ini tashkil etayotgan “gul yorim” murojaati tushirib qoldirilgan holda kuylansa ham, ifodalanayotgan fikrni keragicha anglab, uqib olish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ushbu takror radif o‘rnida kelayotgan esa-da, u lirik murojaatdir. U qo‘shiq mazmuni va ohangini shakllantirish uchun xizmat qilib, estetik tasirchanlikni yanada oshirmoqda.

Bundan anglashiladiki, qo‘shiq qofiyasidan so‘ng kelgan har qanday so‘z takrorini radif sifatida qabul qilib bo‘lmaydi.

D.O‘rayeva va L.To‘rayeva qo‘shiqlarda ko‘p uchraydigan “Ajab-ajab”, “Deydi-yo”, “Ho, yalli”, “Yali-yali”, “Gulyor”, “Omon-yor”, “Ha, kishta-yo, ha kishta” va hokazo singari ritmik takrorlarni “sun‘iy radiflar” deb atashgan. [O‘rayeva D., To‘rayeva L.1:11-14] Ularning fikricha, bu kabi radif o‘rnida qo‘llanib keluvchi takrorlarni qo‘shiqlar tarkibidan tushirib qoldirilsa-da, matn mazmuniga zarar yetmaydi. Darhaqiqat, bunday takrorlar, odatda, qofiyadosh so‘zlardan keyin kelib, qo‘shiqda ifodalanayotgan asosiy mazmunga ba‘zan qo‘shimcha ma‘no yuklaydi yoxud faqat ohangdorlikni kuchaytirish uchun xizmat qilib keladi, xolos. Shulardan kelib chiqib, D.O‘rayeva, L.To‘rayeva radifning o‘zbek xalq qo‘shiqlarida uchraydigan ko‘rinishlarini aniqlashga, bajargan vazifalarini tekshirishga va ularni ma‘lum tasnifga solishga ham e‘tibor qaratishgan. Shu asosda ular xalq qo‘shiqlarida uchraydigan radifni vazifasiga ko‘ra shartli ravishda ikkiga bo‘lishadi:

1. **Qo‘shiq ma‘nosi uchun xizmat qiladigan radiflar.**

2. **Qo‘shiq ohangdorligi uchun xizmat qiladigan radiflar.** [O‘rayeva D., To‘rayeva L.1:14-15]

Ularning fikricha, **qo‘shiq ma‘nosi uchun xizmat qiladigan radiflar** qo‘shiqning badiiy-kompozitsion qurilishida muhim o‘rin tutadi va matnda asosiy

g‘oyani ifodalashga, musiqiylik ohangdorlikni shakllantirishga, lirik kompozitsiyani yaratishga yordam beradi. U tushirib qoldirilsa, qo‘shiq ma‘nosi chiqmay qoladi va mantiqsizlik yuzaga keladi. **Qo‘shiq ohangdorligi uchun xizmat qiladigan radiflar esa qo‘shiqqa qo‘shimcha ohang, kuy bag‘ishlaydi.** Ular qo‘shiqning mazmun tomonidan ko‘ra ko‘proq shakliiy tomoni bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bu olimalarning yana ta‘kidlashicha, o‘zbek xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasida radiflarning bir yoki ko‘p tarkibli ko‘rinishlari uchraydi. Ular so‘z takrori ko‘rinishidagi radiflarni, shartli ravishda, **bir tarkibli radif**, birdan ortiq so‘z yoki gap ko‘rinishida bo‘lgan radiflarni ko‘p tarkibli radif deb ko‘rsatishgan. Lekin shu o‘rinda bir e‘tiroz tug‘iladiki, ular ko‘p tarkibli, ya‘ni gap ko‘rinishli radifni, nazarimizda, refren bilan chalg‘itishgan. [O‘rayeva D., To‘rayeva L.1:11]

D.O‘rayeva xalq qo‘shiqlarida radifga aloqador lingvistik xususiyatlarni alohida o‘rganar ekan, qo‘shiqlardagi shunchaki oddiy, yordamchi so‘zlar takrori radif bo‘lolmasligini, bunday holat ko‘makchi fe‘lli fe‘l qo‘shilmalari tarkibidagi yordamchi so‘zlarda ham kuzatilishini qayd qiladi. Xalq qo‘shiqlarida faqatgina mustaqil so‘z turkumlariga oid leksik birliklarga radif bo‘lib kelishi mumkinligini, yordamchi so‘z turkumlariga oid jumlar hamda ko‘makchi fe‘llar garchi misralarning qofiyasidan so‘ng o‘zgarishsiz takrorlanib kelsa-da, baribir radif hisoblanmasligini, bunga ularning mustaqil leksik manoga ega emasligi, urg‘u ololmasligi sabab ekanini qayd etadi. [O‘rayeva D. 4:322-326.]

Radifni, odatda, yagona mazmun doirasida ma‘lum ob‘ektga qarata yaratilgan qo‘shiqlarda ko‘proq uchratish mumkin. Jumladan, “yor-yor”larda, “allalarda” yoki “turey-turey”larda va hokazo har bir mustaqil to‘rtliklar oxiridagi ohangdosh so‘zlardan keyin misralararo muttasil takrorlanib keladigan “yor-yor”, “alla”, “turey-turey” kabi takrorlar qofiyadosh so‘zlardan keyin kelayotgani ularni radifga tenglashtirishga asos bo‘ladi. Bu qo‘shiqlar kompozitsiyasida ushbu takrorlar doimiyliigi bilan hatto ularga xos alohida janriy belgiga aylangan. Shunga ko‘ra, bu xildagi qo‘shiqlar uchun radif sifatida uchrovchi so‘z umumlashma nom darajasiga ko‘tarilgan. [O‘rayeva D., To‘rayeva L.1:8-9]

Radiflar qo‘shiqda g‘oyaviy-estetik maqsadni yorqin ochib berishga, o‘ziga xos ohang va musiqiylikni yuzaga keltirishga, qo‘shiq ob‘ektiga murojaat ifodasini shakllantirishga ko‘maklashadi. Biroq radif qo‘shiq mazmunidan ko‘ra, ko‘proq uning shakli va ohangi uchun xizmat qiladi.

“O‘zbek xalq qo‘shiqlarida radif” risolasi mualliflari yana ta‘kidlashganidek: “Lirik asarlar kompozitsiyasiga aloqador bo‘lgan radif hodisasi qo‘shiq tarkibidan o‘rin olar ekan, undagi barcha mazmun va shakl birliklari bilan chambarchas bog‘lanadi. Bunda ular ko‘proq qofiya bilan uzviy bog‘lanishi tabiiy. Chunki radif

qofiyadan so‘ng kelishi qat‘iy she‘riy qonuniyatga aylangan”. Qofiya radifning o‘rnini belgilab beradi.

Ayni paytda radifni tajnisli qofiyadan ham farqlashga to‘g‘ri keladi.

O‘rmagimni to‘qiyman,

Kecha-kunduz to‘qiyman.

Qachon tamom bo‘lar deb,

Ashulalar to‘qiyman.[Boychechak. Bolalar folklori.5:312]

Ushbu misralarning oxirida bir xilda takrorlanib kelayotgan “to‘qiyman” so‘zi radif emas. Chunki u shakli bir xil, ammo ma‘nolari har xil bo‘lgan ikkita (omonim) so‘zdir. She‘riyatda bu hodisa tajnis deyiladi. Tajnisli so‘zlardan hosil qilingan qofiya esa tajnisli qofiya deb yuritiladi. [Rayhonov F. 6:56-57] Bunda “to‘qiyman” fe‘li birinchi va ikkinchi misralarda “to‘qimoq”, to‘rtinchi misrada esa “ijod qilmoq” tushunchalarida qo‘llanilgan. Qolaversa, u qofiyadan keyin kelgan so‘z emas, balki o‘zi qofiyadir.

Xalq qo‘shiqlarida oz bo‘lsa-da, radifga xos unsurlar ham mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan namunalar aruzda emas, balki barmoq vaznida yaratilgan asarlardir. Shu sababli ham, bir qaraganda, ulardan radif izlash g‘ayritabiiydek tuyuladi. Biroq o‘zbek, fors-tojik, rus tillardagi turli adabiyotlarda qayd qilingan materiallarni qiyoslab o‘rganish radif qo‘llash an‘anasining yuzaga kelishi va taraqqiyotiga asos bo‘lgan mushtarak qonuniyatlar mavjud, degan xulosaga olib keladi.

Radifning qadimgi turkiy shariyatdagi talqiniga doir muayyan tasavvurga ega bo‘lish uchun “Devonu lug‘oti-t-turk”da keltirilgan quyidagi she‘riy parchani tahlilga tortamiz:

Erän izip sökä turdi,

Bashī bojnīn sökä turdi.

Ufut bolup bo‘kä turdi,

Uzu qama tiban tig‘di (III tom, 250-bet).

Yengilgan odamni anglatib aytadi: u menga bir qancha odamlarni yubordi. Ular yonimda tiz cho‘kib o‘tirdilar. U boshliqlari qilgan ishiga uyalib yashirindi. Shoshilib menga kelib: meni ta‘qib qilma, dedi. Men ham muvofiq topdim (250).

Ko‘rinadiki, misolda uchraydigan “turdi” so‘zi haqida “Devonu lug‘oti-t-turk”ning uchinchi tomida shunday deyiladi:

Turdi er jyqaru turdi – odam yuqori turdi. Boshqasi ham shunday (turur, turmoq).

Turur – o‘tgan zamon va masdar shakllari bo‘lmagan kelasi zamon fe‘lidir... Bu so‘z bir narsa so‘layotgan vaqtda o‘z o‘rnida barqaror ekanini anglatadi.

Chunonchi, ol ewdä turur, ya’ni u uyda bor, demakdir. Bu gapda bu so‘z “tik turmoq” ma’nosida emasdir yoki er sögäl turur – odam kasaldir, demakdir.

“Devonu lug‘oti-t turk”ni nashrga tayyorlagan S. Mutallibov mazkur she’riy parcha keltirilgan o‘rinda “bu so‘zning yozilishi haqida shu tomning 185-betidagi izohimizga qaralsin” degan qaydnomani keltirgan. Darhaqiqat, 3-jildning 185-betidagi 184-izohda radif vazifasida kelgan “turdi” so‘zi uchraydi. Demak, bu dalil radifning faqat arab she’riyati hodisasi bo‘lmay, turkiy xalq she’riyatiga ham birday taalluqli ekanini ko‘rsatadi.

Xullas, yuqorida qaytd etilgan holatlar yuzasidan quyidagi mulohazalarni bildirish o‘rinli ko‘rinadi:

– poetik unsurlar, jumladan, radifga xos belgilar faqat arab she’riyati mahsuli bo‘lmay, bunday holatlar umumpoetik talab va ehtiyoj zamirida shakllangani sababli ularni badiiy xususiyatlar hamda matn yaratilgan til imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tahlil etish lozim bo‘ladi;

– poetik tilning o‘ziga xos jihatlaridan biri lisoniy birliklar takroriga asoslanishiga borib taqaladi. Har qanday mantda fonetik, leksik, grammatik takror u yoki bu darajada mavjud bo‘ladi. Shuning uchun qofiyadan keyin takror holda uchraydigan unsurlar aruz tizimi keng iste’molga kirgunga qadar bo‘lgan xalq she’riyatida ham kuzatiladi;

– keltirilgan she’riy matnlar va asardagi lingvistik izohlar mavjud belgilarning o‘ziga xos xususiyatini namoyish etishi shundan dalolat beradiki, radif ham qofiya singari o‘z lingvopoetik qiymatiga ega bo‘lgan poetik unsurdir.

Radifni ham, hojibni ham qo‘shiqning qofiyasiga qarab aniqlash mumkin. Chunki hojib adabiyotshunoslik nazariyasiga ko‘ra qofiyadan oldin, radif esa qofiyadan keyin kelishi aniq belgilangan. O‘zbek xalq qo‘shiqlari orasida radif va hojibga ega bo‘lganlari ham kam bo‘lsa-da, uchraydi:

Bu kunlar *o‘tar-ketar*, **jonim bolam, alla-yo,**

Yaxshi kunlar *ham yetar*, **jonim bolam, alla-yo,**

Yoki:

Xumlar to‘la *don bo‘lar*, **alla bolam, alla-yo,**

Savat to‘la *non bo‘lar*, **alla bolam alla-yo.** [Alla-yo alla. 7:123]

Ushbu alla baytlarining dastlabkisida “o‘tar-ketar” // “yetar” qofiyadosh so‘zlaridan oldin kelgan “kunlar” takrori hojib, «**jonim bolam, alla-yo**» birikmasi **radif bo‘lsa**, keyin kelgan misralarda “to‘la” so‘zi hojib, “don bo‘lar” // “non bo‘lar” birikmasi qofiya, “alla bolam, alla-yo” birikmasi radifdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘rayeva D., To‘rayeva L. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida radif. – Buxoro, 2015. – 28 b.
2. Bertels E.Y. Navai. Опыт творческой биографии. – М.: Izdatelstvo An SSSR, 1948. – S.48
3. Buxor elda gul sayli, 15-bet.
4. O‘rayeva D. Xalq qo‘shiqlarida radifga aloqador lingvistik xususiyatlar. // O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. – Andijon, 2012. – B.322-326.
5. Boychechak. Bolalar folklori. Mehnat qo‘shiqlari. O‘XI. Ko‘p tomlik. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. – B. 312.
6. Rayhonov F. She‘r qanotidagi yulduzlar: (O‘zbek xalq og‘zaki ijodida qofiya san’ati). – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B.56-57.
7. Alla-yo alla. – T.: O‘qituvchi,1999. – B.123.